

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI OPTIMAL SOLIQQA TORTISH NAZARIYALARI

Ibragimov Zafar Ismailovich,

Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil izlanuvchisi

Optimal soliqqa tortish tizimi uzoq vaqtlardan buyon nazariyotchi hisoblangan iqtisodchi olimlar, soliq siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi iqtisodiy siyosatchilarni hamda soliqqa tortish yo'nalishida izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelayotgan mavzu hisoblanadi. Ushbu paragrafda optimal soliqqa tortishning mavjud nazariyalari va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqiladigan masala soliqlar qanday shakllantirilishi kerakligi haqidagi nazariy-ilmiy adabiyotlardan soliq siyosatini ishlab chiquvchilar olishi mumkin bo'lgan asosiy jihatlarni ko'rsatib beradi va bu jihatlarning amaldagi soliq siyosatida qay darajada aks etishi muhokama qilinaadi. Bizning taqiqot ishimizda optimal soliqqa tortish nazariyasining fundamental asosi hisoblangan Frenk Plampton Ramsey (Frank Plumpton Ramsey) (A contribution to the theory of Taxation, 1927) va Mirrleeslarning (An Exploration in the Theory of Optimal Income Taxation, 1971) ilmiy ishlariga asoslangan optimal soliq solish nazariyalari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, so'nggi o'n yilliklarda rivojlangan soliq nazariyasi tomonidan taklif qilingan quyidagi muhim hisoblangan umumiy qoidalarni ko'rsatib o'tish mumkin¹:

1. Optimal marjinal soliq stavkalarini belgilanishi imkoniyatlarning taqsimlanishiga bog'liq;
2. Yuqori daromadlarda optimal marjinal soliq shkalasi kamayishi mumkin;
3. Yagona soliq stavkasi universal bir martalik transfert bilan optimalga yaqin bo'lishi mumkin;
4. Qayta taqsimlashning optimal darajasi ish haqi tengsizligi o'sishi bilan ortadi;

¹N. Gregory Mankiw, Matthew Weinzierl, and Danny Yagan .Optimal Taxation in Theory and Practice. https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/09-140_10b91d0e-6f4c-48ee-b75b-8e2e0607f530.pdf.

5. Soliqlar shaxsiy xususiyatlar bilan bir qatorda daromadlarga ham bog'liq bo'lishi kerak;

6. Faqat yakuniy mahsulotlar soliqqa tortilishi kerak va odatda ular bir xilda soliqqa tortilishi lozim;

7. Kapitaldan daromad hech bo'lmaganda, oldindan soliqqa tortilmasligi kerak;

8. Stoxastik dinamik iqtisodlarda optimal soliq siyosati murakkablikni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan har bir qoidalarning nazariy asoslarini va ularning amaldagi soliq siyosatiga qanchalik mos kelishini muhokama qilinadi. Umuman olganda, soliq siyosati soliq nazariyasi tomonidan taklif qilingan yo'nalishlarda bir necha jihatlar bo'yicha rivojlandi, Garchi bu o'lchovlar bo'yicha nazariy tavsiyalari har doim ham aniq bo'lmasa ham. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo bo'lgan mamlakatlarda maksimal marjinal soliq stavkalar pasaytirildi. Marjinal daromad solig'i marjinal daromad solig'i shkalalari tekislanadi va tovarlarga soliqlar bir xil bo'lib, odatda yakuniy tovarlarga nisbatan hisoblanadi. Biroq, kapitalni soliqqa tortish tendensiyalari turlicha bo'lib, shu bilan birga, soliq stavkalar hali ham optimal soliq nazariyasida keltirib o'tilgan soliq stavkasining nolli darajasidan ancha yuqori. Bundan tashqari, nazariyaning ba'zi nozik ko'rsatmalari, masalan, shaxsiy xususiyatlar, aktivlarni testdan o'tkazish va tarixga bog'liqlikni o'z ichiga olgan soliqlar kamdan-kam uchraydi. Agar soliq nazariyasi va amaldagi soliq siyosati o'rtasida katta bo'shliqlar saqlanib qolsa, siyosatchilar nazariyotchilardan ko'proq narsani o'rganishlari kerakmi yoki aksincha, bu murakkab savol hisoblanadi.

Optimal soliqqa tortishning standart nazariyasi soliq tizimini bir qator cheklovlarni hisobga olgan holda ijtimoiy farovonlik funksiyasini maksimal darajada oshirish uchun tanlash kerakligini ta'kidlaydi.

Optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy rejalashtiruvchi utilitar sifatida qaraladi, ya'ni ijtimoiy ta'minot funksiyasi jamiyatdagi alohida shaxslar nafliligiga (naflilik– inson ehtiyojlari qondirilishi) asoslanadi.

“Naflilik” tushunchasi optimal soliqqa tortish bo'yicha maxsus adabiyotlarda “daromad” tushunchasidan ham ko'proq qo'llanilib, bunday fenomenga quyidagi tushuntirishlar berilgan²: birinchidan, individlar bevosita soliqlar ko'payishiga javoban o'z daromadlarining kamayishini qoplash uchun yuqori mehnat samaradorligi bilan javob berishi ancha keng tarqalgan. Ular uchun mehnat qilishning ortib borishi soliqdan keyingi

²Heady C. (1993). Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey Fiscal Studies vol. 14, no.1, pp.18-19.

daromadning pasayishi kutilayotgan summaga soliqning to'liq qiymati oshishiga qadar qo'shilishi zarur bo'lgan qiymatdan iborat. Bunday to'liq qiymat faqat foydalilikning mezonlari orqali aniq aks etgan bo'lib, bunda yalpi daromad emas, balki soliqdan keyingi daromad (soliqlar ushlangandan keyingi daromad) bilan belgilanadi. Ikkinchidan, soliqdan keyingi daromad miqdorining tengsizlik darajasi tahlili xatoliklarga olib kelishi mumkin, chunki bu tengsizlikka qanday omillar sabab bo'lganligi aniq emas. Masalan, teng bo'lmagan mehnat harakatlari natijasida (taklif qilingan mehnat miqdori) daromad miqdori tengsizlikning adekvat bo'lmagan o'lchovidir. Bu holatda naflilik tengsizlikning asosiy o'lchovi hisoblanadi, chunki u individlarning mehnat harakatidagi farqlarni baholashga imkon beradi. Uchinchidan, iste'mol tovarlariga bilvosita soliqlar solinishi narxlar va iste'molchilarning iste'mol strukturasi o'zgartiradi. Bu esa, o'z navbatida, nominal daromadni real daromadga o'tkazishda iste'mol narxlar indeksidagi muhim ko'rsatkichlar o'zgarishiga olib keladi. Bunda iste'molchilarning ustunligi daromad funksiyasi orqali emas, balki naflilik funksiyasi bilan aniqlanadi. Ushbu mulohazalarga asoslanib, naflilik funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$U = f(x_1, \dots, x_n, L) \quad (1)$$

Bu yerda: U –naflilik; x_i –tovar iste'moli, shu jumladan, joriy jamg'armaga bog'liq kelgusidagi iste'mol; L –taklif qilingan mehnat miqdori.

Faqat soliqlar ushlangandan keyingi real daromad (Y) bilan ifodalangan iste'molning umumiy hajmi muhim ahamiyatga ega bo'lib, naflilik funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U = f(Y, L) \quad (2)$$

Optimal soliqqa tortish bo'yicha nazariy adabiyotlarning umumiy tahlilida individual naflilikning noxiziqli funksiyasi hisoblangan ijtimoiy farovonlik funksiyasidan foydalanilgan va bu ijtimoiy rejalashtiruvchiga naflilikni teng taqsimlash imkoniyatini beradi. Biroq, ayrim tadqiqotlarda individual naflilik chiziqli funksiyasi ijtimoiy farovonlik funksiyasi sifatida faraz qilingan holda ijtimoiy rejalashtiruvchi faqat o'rtacha naflilik haqida qayg'uradi, deb taxmin qilinadi³. Maqsad funksiyasi aniqlangandan so'ng, keyingi qadam soliq tizimini loyihalashda ijtimoiy rejalashtiruvchi duch keladigan cheklavlarni aniqlashdir.

³Mankiw N. Gregory & Matthew Weinzierl & Danny Yagan (2009). "Optimal Taxation in Theory and Practice", https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/09-140_10b91d0e-6f4c-48ee-b75b-8e2e0607f530.pdf.

F.Ramsey o'zining dastlabki ilmiy ishlaridan birida bitta yo'nalishni taklif qiladi, deylik, rejalashtiruvchi ma'lum miqdordagi soliq tushumini faqat tovarlarga soliqlar orqali oshirishi kerak. Ramsey shuni ko'rsatdiki, bunday soliqlar reprezentativ iste'mol tovariga talabning egiluvchanligiga teskari mutanosib ravishda undirilishi kerak, shuning uchun talab egiluvchan bo'lmagan tovarlarga ko'proq soliq solinishi lozim. Biroq, maqsadi eng yaxshi soliq tizimini yaratish bo'lgan optimal soliqqa tortish bo'yicha adabiyotlar nuqtayi nazaridan, shubhasiz, taxmin bo'yicha ba'zi soliq tizimlarini istisno qilish muammoli ekanligi aniqdir.


Ramsey tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlarning asosi sifatida qaraladi. Ramsey samarali soliqqa tortish faqat bir soliqni emas, to'liq soliqlar to'plamini joriy etishni talab qilishini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, bu foizli daromadlarni soliqqa tortishda ham muhim ahamiyatga ega. Ramsey iste'mol va jamg'armani ikkita turli tovarlar sifatida ko'rib chiqadi va kapitalga ish haqidan daromadga nisbatan ancha past stavkada soliq solinishi lozimligini ta'kidlagan⁴.

Jeyms Mirrlis soliq to'lovchilar o'rtasida kuzatilmaydigan xilma-xillik bilan aniq shug'ullanadigan rejalashtirish muammosini rasmiylashtirish yo'lini taklif qilish orqali optimal soliq modellarining ikkinchi to'lqinini boshladi. Modelning eng asosiy versiyasida shaxslar daromad olishning tug'ma qobiliyati bilan farqlanadi⁵.

Mirrlees ilmiy ishlaridan keyingi dastlabki tadqiqotlarda ijtimoiy farovonlik va individual naflilik funksiyalarni taqsimlash qobiliyati va mehnat taklifi modelining egiluvchanligi formasini olgan, bu daromad taqsimotining yuqori qismida marjinal soliq stavkalarini pasaytirishda aniq, ammo ajablantiradigan natijalar bergan. Ba'zi so'nggi ilmiy ishlar hozirgi siyosatga ko'proq mos keladigan natijalar bergan bo'lsada, ammo ko'plab asosiy taxminlar munozara uchun ochiq qolgan.

⁴Ramsey, F.P. (1927). "A contribution to the theory of Taxation", E Economic Journal, vol. 37(145), pp.47-61.

⁵Mirrlees, James A., (1971). "An Exploration in the Theory of Optimal Income Taxation," Review of Economic Studies 38, 175-208.



1-rasm. OECD mamlakatlarida 1983-2007 yy. yuqori marjinal soliq chegarasi⁶


Iqtisodiy nazariyaning noaniqligiga qaramay, soʻnggi oʻttiz yillikda davlat siyosati barqaror ravishda yuqori daromad oluvchilar uchun pastroq marjinal soliq stavkalari tomon oʻzgaragan. Xususan, 1983-yildan 2007-yilgacha OECD mamlakatlari uchun eng yuqori marjinal daromad soligʻi stavkasi va qoʻshilgan qiymat soligʻi (yoki umumiy savdo soligʻi) stavkasi bilan birlashtirgan eng yuqori marjinal soliq stavkasi dinamikasida koʻrish mumkin (1-rasm). OECDga aʼzo mamlakatlarda soliqlarning oʻrtacha yuqori chegarasi bu davrda deyarli 80 foizdan 60 foizdan sal koʻproqqa kamaygan. Ushbu pasayishning katta qismi markaziy hukumat tomonidan hisoblangan maksimal marjinal daromad soligʻi stavkasining kamayishi bilan bogʻliq boʻlib, ushbu davr mobaynida 50 foizdan sal ortiqroq miqdorga pasaytirilgan. Oʻrtacha hisobda olganda, OECD mamlakatlari boʻyicha soʻnggi 25 yil ichida ushbu yuqori daromad darajasida marjinal soliq stavkasi qariyb 11 foiz punktga kamaygan.

Optimal marjinal soliq stavkasining asosiy hal qiluvchi omili yuqorida muhokama qilinganidek, qobiliyatlarni taqsimlash shaklidir. Optimal soliqqa tortish boʻyicha dastlabki ishlarda qabul qilingan shakllar nisbatan tekis marjinal soliq stavkalarini keltirib chiqardi. Odatda, optimal tizim yagona marjinal soliq stavkasini barcha jismoniy shaxslarga bir martalik toʻlov bilan birlashtiradi, shuning uchun oʻrtacha soliq stavkasi daromad bilan ortadi, marjinal soliq stavkasi esa oshmaydi.

2-rasmda 300000 AQSh dollargacha boʻlgan ikki parametrik yondashuvning har biri uchun optimal marjinal soliq stavkalari koʻrsatilgan. Log normal holat uchun marjinal

⁶Gregory Mankiw, Matthew Weinzierl, and Danny Yagan .Optimal Taxation in Theory and Practice. https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/09-140_10b91d0e-6f4c-48ee-b75b-8e2e0607f530.pdf.


stavkalar ish haqi taqsimoti davomida biroz pasayib bormoqda. Log normal Pareto holati uchun ular ko'tarilmoqda, Saezning (Using Elasticities to Derive Optimal Income tax Rates,2001) tadqiqot natijalariga mos keladigan taxminan 50000 AQSh dollaridan boshlab ko'tariladi.



2-rasm. Optimal marjinal soliq simulyatsiyalari⁷

Ushbu qonuniyatni tushunish uchun eslatib o'tamiz, yuqori darajadagi qobiliyatlardagi log normal taqsimlanishga nisbatan Pareto taqsimlash qalinroqdir. Mirrlees fikricha, yuqori darajadagi daromadlar tengsizligida optimal soliq siyosati ko'proq qayta taqsimlashga qaratilishiga olib keladi. Uning ta'kidlashicha, daromad darajasi unchalik teng bo'lmagan jamiyatlarda odatda soliq stavkalari yuqori bo'lishini va aholi kamroq ishlashi talab etiladi, kam daromadli aholi bo'sh vaqtini o'tkazishi iste'molni qo'llab-quvvatlash uchun bir martalik grantlar bilan amalga oshadi. Taqiqotda ish haqi taqsimotini qobiliyatning proksi sifatida ko'rib chiqilgan va keyin tegishli optimal soliqlar simulyatsiya qilingan.

⁷Gregory Mankiw, Matthew Weinzierl, and Danny Yagan .Optimal Taxation in Theory and Practice. https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/09-140_10b91d0e-6f4c-48ee-b75b-8e2e0607f530.pdf.



**3-rasm. Daromadlar tengsizligining mamlakatlar
guruhlari bo'yicha tahlili⁸**

Daromad tengsizlik darajasi ikki guruh, ya'ni yuqori daromadli hamda iqtisodiyoti rivojlanayotgan, o'tish davri mamlakatlarida soliqlar va transfertlar chegirilguncha bo'lgan daromadlarda farqlanish bo'lmasada va keyingisida esa aksincha farqlanish mavjuddir (daromad tengsizligi Jini koeffitsiyenti yordamida o'lchanadi, u 0 dan 1 gacha, 0 esa mukammal tenglikdir). Xususan, Malkina tomonidan aholi daromadlar tengsizligini yumshatish uchun, birinchi navbatda, fiskal siyosat instrumentlaridan foydalanish kerakligi ta'kidlangan⁹. Shuningdek, Baihui fikricha, o'tgan o'n yilliklar davomida Xitoyning barqaror va tez iqtisodiy o'sishi nafaqat aholi jon boshiga daromad o'sishiga, balki fuqarolarning ayrim toifalari uchun yuqori darajadagi daromad tengsizligiga olib kelgan. Soliqlar va transfertlar fiskal siyosat instrumentlari sifatida aholi daromadlarini taqsimlashdagi ta'sirini empirik baholash natijasida birgalikdagi qayta taqsimlovchi daromad solig'i va ijtimoiy

⁸<https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

⁹Малкина, М.Ю. 2016. Институциональные основы неравенства доходов в современной экономике. Журнал институциональных исследований. № 1 (8). С. 115..

sug‘urta badallari ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi va jamiyatda daromadlarni qayta taqsimlashda foydalanish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan¹⁰.

Daromadlarni optimal soliqqa tortish nazariyalari iqtisodchilar va siyosatchilar jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq undirishning eng samarali usulini aniqlash uchun foydalanadigan turli yondashuvlar va modellarni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan yetuk iqtisodchi olimlar tadqiqotlariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, fikrimizcha, optimal soliqqa tortish nazariyasi – soliq siyosatida samaradorlik va adolatning raqobatdosh maqsadlarini muvozanatlashga intiladi hamda odamlarning xulq-atvori va iqtisodiy faoliyatida yuzaga keladigan buzilishlarni minimallashtirish maqsadida tadqiq etiladi.

Umuman olganda, daromadlarni optimal soliqqa tortish uchun yagona yondashuv mavjud emas va siyosatchilar soliq siyosatini ishlab chiqishda ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar, taqsimlash natijalari, ma‘muriy va muvofiqlik xarajatlari kabi turli omillarni hisobga olishlari kerak. Oxir oqibat, maqsad adolatli va samarali soliq tizimini yaratish, shu bilan birga iqtisodiy o‘shishni va mustahkam davlat daromadlarini rag‘batlantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

¹⁰Baihui Liu. Redistributive Effect of Taxes and Transfers: Evidence From China. *Journal of Tax Reform*, 2017, vol. 3, no. 1, pp. 49–50.